XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 11 - yanvar VI-77-2-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand shahridagi qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4, 6, va 10-moddalariga muvofiq Samarqand shahar hokimligining geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiyasining shaharda nomsiz 5 ta qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi 2022-yil 28-oktabrdagi 01-33/105-sonli yig‘ilish bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 30-noyabrdagi 08-10691-sonli ekspertiza xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari shahar Kengashining navbatdan tashqari VI chaqiriq LXXVII sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchi N.Alkarovning Samarqand shahridagi qabristonlarni nomlash to‘g‘risida taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand shahridagi 4 ta qabriston nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Samarqand shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Qodirov), shahar statistika bo‘limi (Ulashev), davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filiali (Abjalov), mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan qabriston nomlarini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar

kiritilishi ta’minlasin.

4. Samarqand shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (Ibragimov) shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Qodirov), nom berilgan qabristonlarga tegishli belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filiali (Abjalov), shahar obodonalshtirish boshqarmasi (Bobonazarov) bilan birgalikda nom berilgan qabristonlarga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatilish ta’minlasin.

6. Do‘stlik MFYda joylashgan qabristonga “Do‘stlik” nomi berilishi Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi deputatlari tomonidan maqullanmaganligi sababli, Qonun hujjatlari talablariga muvofiq shahar Kengashiga qayta taklif kiritilsin va buning ijrosi shahar hokimining maslahatchisi (Alkarov) zimmasiga yuklansin.

7. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari (Po‘latov), “Samarqand” gazetasi bosh muharriri (Jo‘rayev)larga mazkur qarorni “Zarafshon”, “Самаркандкий вестник”, “Ovozi Samarqand” gazetalarida chop etilishini hamda Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasiga va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Qonuniylikni ta’minlash, sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Bababekova) va shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Alkarov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-77-2-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

Samarqand shahridagi ayrim nomsiz qabristonlarni nomlash

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasi xulosasi
1.	Qabriston	Galaosiyo	Nomsiz	Shamsiobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Qabriston	Mehnat	Nomsiz	Maysazor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Qabriston	Nurafshon	Nomsiz	Darg‘om	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Qabriston	Ilmobod	Nomsiz	Damariq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq